

## TEXNIK SOHALARDA OLIY MALAKALI KADRLARNI TAYYORLASHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**To‘lqinboyeva Mahliyo**

Farg‘ona Davlat Universiteti Pedagogika va psixologiya fakulteti

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada texnik sohalarda oliy malakali kadrlarni tayyorlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish to‘g‘risida fikrlar ilgari surilgan.

**Kalit so‘zlar:** Oliy malakali, maqsad, zamonaviy, pedagogik, raqobat, kadrlar, multimedia, internet.

### ABSTRACT

In this article, ideas are advanced about the use of modern pedagogical technologies in the training of highly qualified personnel in technical fields.

**Keywords:** Highly qualified, goal, modern, pedagogical, competition, personnel, multimedia, internet.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье выдвигаются идеи об использовании современных педагогических технологий в подготовке высококвалифицированных кадров технических направлений.

**Ключевые слова:** Высококвалифицированный, цель, современный, педагогический, конкурс, кадры, мультимедиа, Интернет.

Oliy malakali kadrlarni tayyorlashda yuqori ko‘rsatkichga erishishni maqsad qilgan o‘qituvchi, avvalo, har bir darsga ijodiy yondashishi, dars jarayonida ko‘zda tutilgan barcha bosqichlarni erkin amalga oshira oladigan kasbiy mahoratga ega bo‘lishi kerak. Kasbiy maxorat esa o‘qituvchi shaxsidagi tabiiy imkoniyatlar, pedagogik-psixologik iqtidor, o‘z ishiga mas’uliyat bilan qarash, o‘quvchidagi o‘zgarishlarni o‘z vaqtida sezish, bola shaxsi, talabalar jamoasiga to‘g‘ri ta’sir eta olishning amaliy namoyon bo‘lishidir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida darslarni tashkil etish malakali kadrlarni tayyorlash uchun davr talabi xisoblanadi.

Ta’lim sohasini isloh etish raqobatdosh kadrlarni tayyorlashni hal qiluvchi omillaridir. “Zamonaviy raqobat kurashida so‘z, birinchi navbatda, resurslar, moddiy boyliklarga egalik to‘g‘risida emas, balki yangiliklarni joriy eta olish qobiliyati

to'g'risida boradi".

Oliy ta'lim muassasalari o'qituvchi va talabalarining internet tarmog'i, multimedia tizimlari va masofadan o'qitish usullaridan foydalangan holda, zamonaviy innovastion pedagogika, axborot-kommunikastiya texnologiyalarini egallashi va ularni o'quv jarayoniga faol tatbiq etishi masalalari belgilab qo'yildi.

Quyida Issiqlik ta'minoti tizimi fanini o'qitishda foydalanish mumkin bo'lgan ayrim pedagogik texnologiyaning metodlarini keltirib o'tamiz.

O'quv-tarbiya jarayonini metodik ta'minlash samaradorligini rivojlantirishda asosiy e'tibor talabalarining ta'lim olishlarini faollashtirish, ilg'or pedagogik tajriba, o'qitishning zamonaviy didaktik vositalari, axborot va telekommunikastiya texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan zamonaviy ta'lim usullarini joriy etishga qaratilmokda.

Oliy ta'lim tizimida ta'lim olayotgan talabalarining tanlagan kasbiga moyilligi, layoqatlari, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning tanlagan yo'nalishlari bo'yicha mutaxassis sifatida shakllanishlari uchun maxsus fanlarni o'qitishni samarali tashkil qilishni ta'minlash lozim.

«Issiqlik ta'minoti tizimlari» fanining o'quv dasturida ma'ruza, amaliy va tajriba mashg'ulotlariga o'quv soatlari ajratilgan. Talabalarga bilim berish sifatini oshirish va yukori natijaga erishish maqsadida, o'qitishning interfaol usullaridan, zamonaviy axborot texnikalari, multimediyali o'quv qo'llanmalaridan foydalanish juda katta ahamiyat kasb etadi. Yuqorida keltirilgan usul va vositalardan o'quv mashg'ulotlarida samarali foydalanish ta'lim sifatini oshirish va malakali kadrlar tayyorlashning asosiy negzlaridan xissoblanadi.

«Issiqlik taminoti tizimlari » fanini o'qitishda mavjud mavzular ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida o'tiladi. Mavzularning mazmuni va hajmiga qarab ularda ilg'or pedagogik texnologiyalarning ayrim usul va texnikalaridan foydalaniladi. Mavzularni o'qitishda "Baliq skileti" "muammoli vaziyat" "domino", "nima uchun" "venn diogrammasi" "sinkveyn", "nilufar guli" "blis-so'rov", "klaster", "akliy hujum" kabi usul va texnikalardan keng foydalaniladi.

## **XULOSA**

Oliy ta'lim muassasalarida malakali kadrlarni tayyorlash jarayonida talabalarining tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish asosiy masalardan hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasalarida malakali kadrlarni tayyorlash jarayonida tizimli ishlarni yo'lga qo'yish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida darslarni tashkil etish, malakali kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini takidlagan xolda bu boradagi ishlarni yanada takomillashtirish lozim. Ushbu yo'nalishda izchil faoliyat olib borayotgan professor - o'qituvchilar tajribalarini ommalashtirish borasida amaliy ishlarni yo'lga qo'yish kerak.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Shavkat Mirziyoev. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni. <https://lex.uz/>
2. Shavkat Mirziyoev. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni. <https://lex.uz/>
3. A.Zunnunov. Pedagogika tarixi. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. Sharq nashriyoti. -T.: 2004 y. 148-b.
4. Usmonova, D., Ganiyeva, D., & Melikuziev, A. (2023, May). PARALINGUISTICS AND ITS RELATED PROBLEMS. In International Conference On Higher Education Teaching (Vol. 1, No. 3, pp. 20-21).
5. Khakimov, M., Mirzayeva, D., & Melikuziev, A. (2023, May). CULTURAL ASPECTS OF PARALINGUSITIC DEVICES. In Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education (Vol. 1, No. 5, pp. 109-111).
6. Mardonov Sh.Q. Yangi ta’limiy qadriyatlar asosida pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish. - T.: Fan, 2006.
7. “Relations Between Husband and Wife in Child Rearing” Tulkinboeva Makhliyo. European Journal of Higher Education and Academic Advancement. . Volume 1, Issue 2. 2023. 124-125-bet.